XORIJIY DRAMATURGLAR ASARLARI ASOSIDA YARATILGAN STSENOGRAFIYA ASARLARINING BADIIY XUSUSIYATLARI

Shokirova Dilshoda Sodiqjon qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Teatr bezagi rangtasviri mutaxassisligi magistranti
DOI: 10.67620/artdsgn.690017

Annotatsiya. *Maqolada xorijiy dramaturglarning asarlari asosida yaratilgan stsenografiya asarlarining badiiy – estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, Uilyam Shekspir, Henrik Ibsen, Bertolt Brext, Samuel Bekket va Ejen Ionesko kabi dramaturglarning sahna asarlari asosida ishlangan stsenografik yechimlarning badiiy talqini yoritilgan. Zamonaviy teatrda stsenografiyaning ramziy, texnologik va milliy stilizatsion yondashuvlari o‘rganilib, milliy teatr san’atida xorijiy dramaturgiya talqinining o‘ziga xosligi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *stsenografiya, dramaturgiya, teatr, absurd janri, vizual ifoda, modernizm, postmodernizm, Glob teatri, milliy stilizatsiya, teatr falsafasi, ekzistensializm, postdramatik teatr, falsafa, minimalistik stsenografiya, metaforalar, ramziylik.*

Teatr san’ati insoniyatning ma’naviy madaniy merosida o‘ziga xos o‘rin tutadi. U dramaturgiya, aktyorlik san’ati, rejissura, musiqa va tasviriy san’atning birlashuvidan tashkil topgan murakkab san’at turidir. Ushbu sintezning markazida stsenografiya - ya’ni sahna bezagi, vizual muhitni yaratish san’ati turadi. Stsenografiya teatr san’atining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, sahna makoni, dekoratsiya, yoritish, rang, tovush va vizual tasvirlar orqali dramaturgik g‘oyani ifodalovchi badiiy tizimdir. Xorijiy dramaturglar asarlari asosida yaratilgan sahna ishlanmalarida stsenografiya dramaturgik g‘oyaning mazmunini chuqurroq ochib berish, asarning milliy teatr muhitida qayta talqin qilinishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Xorijiy dramaturgiyaning teatr san’atiga kirib kelishi bilan stsenografiyada yangi badiiy yondashuvlar, shakllar, ramzlar va texnologik ifoda vositalari paydo bo‘ldi. Bugungi kunda teatr sahnasida modern va postmodern yo‘nalishlar ta’sirida stsenografiya badiiy tildan mustaqil ifoda vositasiga aylandi. Bu jarayon xorijiy dramaturglarning asarlarini sahnalashtirishda ham o‘z aksini topib, milliy teatr san’atining yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratmoqda. Xorijiy dramaturglar – teatr san’ati rivojining asosiy manbalaridan biridir. Ularning asarlari universalligi, insoniy kechinmalar va ijtimoiy muammolarning badiiy talqini orqali dunyo sahnalarida turli vizual shakllarda ifodalanadi.

Uilyam Shekspir jahon dramaturgiyasining eng buyuk namoyandalaridan biri bo‘lib, uning asarlari sahna san’ati tarixida stsenografiya rivojiga beqiyos ta’sir ko‘rsatgan. Uning ijodidagi asarlar - “Hamlet”, “Otello”, “Maqsudiy Yuliy Sezar”, “Romeo va Julyetta” kabi pyesalar nafaqat dramaturgiya jihatidan, balki sahnaviy talqin, tasviriy ifoda va vizual estetika nuqtai nazaridan ham bebaho ahamiyat kasb etadi. Shekspir davrida teatrlar, xususan “Glob” teatri, bugungi kunda

biz tushungan stsenografiyaga o‘xshash murakkab dekoratsiyalarga ega emas edi. O‘sha davr san’atida voqealar asosan aktyor nutqi, kiyim, minimal rekvizitlar va sahnaning tabiiy fazosi orqali ifodalanardi. Shunga qaramay, Shekspir dramaturgiyasining badiiy kuchi shundaki, u sahnada vizual tasvirlarni tasavvur qilish imkoniyatini bergan. U so‘z orqali makon, vaqt, muhit va kayfiyatni yaratdi. Bu holat Shekspir asarlari uchun stsenografik yechimlar yaratishda cheksiz imkoniyatlar ochib berdi.

Zamonaviy teatrda Shekspir asarlari stsenografiyasi dramaturgik matnning chuqur falsafasiga tayangan holda har xil talqinlarda namoyon bo‘lmoqda. Rejissyorlar va rassomlar Shekspir asarlaridagi voqealarni turlicha tarixiy davrlarga, siyosiy va ijtimoiy kontekstlarga ko‘chiradilar. Shu sababli Shekspir asarlari sahnaga har safar yangicha ko‘rinishda, yangi badiiy yondashuv bilan chiqadi. Masalan, “Hamlet” asarining sahna yechimlarida stsenografiya doimo qahramonning ichki iztiroblarini, ruhiy bo‘linishini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Ko‘p hollarda sahnada qorong‘u ranglar, oynavand devorlar, yakkalikni ifodalovchi joylashtirishlar qo‘llanadi. Yorug‘lik va soya o‘yini bu asarda ramziy ahamiyatga ega bo‘lib, Hamletning ichki dunyosi – shubha, qo‘rquv va umidsizlikni ifodalaydi. Ba’zi zamonaviy sahnalashtirishlarda sahnada faqat qora fonda bitta stul yoki qurol turadi. Bu minimalizm orqali ichki fojiaga urg‘u beriladi.

Shekspernig “Otello” tragediyasida stsenografiya ehtiros, rashk va fojiaviy ziddiyatlarning ifoda vositasiga aylanadi. Ranglar gammasida qizil, qora va jigarrang soyalarning ustunligi – rashk va g‘azab ramzidir. Ayrim sahnalarda yoritish orqali hissiy bosim oshiriladi. Odatda, Desdemona va Otello sahnalarida kontrast yoritish – yorqin va qorong‘u fon o‘rtasidagi o‘yin inson ruhiyatidagi ziddiyatni ifodalaydi.

Shekspirning “Romeo va Julyetta“ asarida stsenografiya lirik romantizm va fojiaviylik uyg‘unligini yaratadi. Ko‘p hollarda rejissyorlar ikki dunyo – sevgi va nafrat, nur va soya, hayot va o‘lim ramzlarini vizual tarzda ifodalash uchun stsenografiyani kontrast asosida quradilar. Masalan, Kapulletlar uyi sovuq ranglarda, Montekilar uyi esa iliq ranglarda berilishi orqali bu ikki dunyoning qarama-qarshiligi ko‘rsatiladi. Romeo va Julyettaning uchrashuv joyi esa neytral, nurga to‘la makon sifatida ishlanadi.

Henrik Ibsen asarlari jahon dramaturgiyasi tarixida realizm va psixologik drama asoschilaridan biri sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning asarlari inson shaxsiyati, jamiyat bosimi, axloqiy tanlov va ichki ziddiyatlarni chuqur tahlil qilishi bilan ajralib turadi. Ibsen dramaturgiyasining bunday ruhiy va ijtimoiy mazmuni stsenografiyada ham o‘ziga xos badiiy yondashuvni shakllantirdi. Ibsen asarlari stsenografiyasi tashqi bezakdan ko‘ra ichki mazmunni ochishga xizmat qiladigan, sodda, ammo ma’noga boy sahna makoniga tayanadi.

Ibsen davrida teatr san’ati realistik yo‘nalishda rivojlandi. Shuning uchun uning pyesalari sahnalashtirilganda stsenografiya asosan real hayotga yaqin muhit yaratishga intiladi. “Qo‘g‘irchoq uy”, “Xalq dushmani”, “Arvohlar”, “Hadda Gabler”, “Yovvoyi o‘rdak” kabi pyesalarida esa stsenografiya realzm va psixologizmga asoslanadi. Ya’ni, sahna ko‘pincha yopiq interyer – mehmonxona, ish xonasi yoki yashash xonasi shaklida, minimalist me’moriy bezaklar, tabiiy yorug‘lik va interyer tavsilotlari orqali burjua jamiyatidagi ruhiy inqiroz ifoda etiladi.

Ibsen stsenografiyasining muhum xususiyati shundaki, sahna makoni tashqi jihatdan sokin va tartibli ko‘rinsada, uning ichida kuchli dramatik ziddiyatlar yashirinadi. Masalan, “Qo‘g‘irchoq uy” asarida oila uyi tashqi tomondan farovonlik va osoyishtalik timsoli bo‘lsa, stsenografik jihatdan bu yopiq makon qahramon ayolning ruhiy qamalganligini ifodalaydi. Eshiklar, derazalar, mebellarning joylashuvi Nora obrazining erkinlikka bo‘lgan intilishiga qarama qarshi tarzda sahnada siqilgan muhit yaratadi. Asar oxiridagi eshikning yopilishi esa stsenografiyada ramziy yechim sifatida insonning yangi hayot sari qadam tashlashini anglatadi.

Ibsen asarlarida yorug‘lik stsenografiyaning muhim ifoda vositasidir. Ko‘pincha, xira, tabiiy yorug‘lik qo‘llanilib, bu qahramonlarning ichki kechinmalarini, ruhiy bosimini ta’kidlaydi. Yorug‘lik va soya o‘yini sahnada yashirin haqiqatlar ochilishiga xizmat qiladi. Tashqi tomondan oddiy ko‘ringan sahna muhitida asta-sekin dramatik keskinlik ortib boradi.

Zamonaviy teatrda Ibsen asarlari stsenografiyasi tobora ramziy va minimalist talqinlarda namoyon bo‘lmoqda. Rejissyorlar an’anaviy realistik dekoratsiyadan voz kechib, sahnani soddalashtirilgan, ba’zan bo‘sh makon sifatida talqin qiladilar. Bunday yondashuvda stsenografiya ijtimoiy muammolarni umumlashtirilgan shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar – proyeksiya, yorug‘lik effektlari va ovoz dizayni Ibsen dramaturgiyasining ruhiy qatlamlarini chuqurroq ochishga yordam beradi.

Samuel Bekket XX asr absurd dramaturgiyasining eng yirik vakillaridan biri bo‘lib, uning asarlari teatr san’atida yangi estetik yo‘nalish – “absurd teatr” yoki “ma’nosizlik teatri shakllanishiga asos bo‘ldi. Bekket dramaturgiyasi sahna san’atida o‘ziga xos badiiy makon, vaqt va harakat tizimini yaratdi. Uning stsenografiyasi insonning mavjudlikdagi iztirobini, hayotning ma’nosizligini va sukutning falsafasini ifodalovchi ramziy va minimalistik shakllar orqali quriladi. Bekket stsenografiyasining markazida bo‘sh makon konsepsiyasi turadi. U sahnani ortiqcha bezaklardan tozalab, tomoshabinni inson mavjudligining “bo‘shlig‘i” bilan yuzma-yuz qoldiradi. Bu bo‘shlik nafaqat vizual jihatdan, balki, ma’nodoshlik jihatidan ham asarning mazmunini belgilaydi. Shuning uchun Bekket sahnasida har bir predmet, yorug‘lik, sukut va harakat falsafiy ma’noga ega.

Eng mashhur asarlaridan biri – “Godoni kutib” (1952) pyesasida stsenografiya minimalizmning eng yorqin namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Sahnada faqat bitta daraxt, yo‘l va ikki odam mavjud. Bu oddiy manzara inson hayotining abadiy “kutish” holatini ifodalaydi. Daraxt – umid va yashash istagining ramzi, bo‘sh joy esa, hayotning ma’nosizligining timsolidir. Vaqt oqimini belgilovchi yagona o‘zgarish – daraxtning novdasida paydo bo‘ladigan bir nechta bargdir. Bu mayda tafsilot Bekket uchun butun mavjudlik jarayonining belgisi bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa stsenografiya asarning falsafiy mohiyatini to‘liq ifodalaydi: inson hayoti to‘liq davom etadi, lekin hech qanday natija bermaydi.

Bekketning yana bir mashhur asari - “Oxirgi o‘yin” (1957) sahna bezaklari bilan yanada tor va qamalgan muhit yaratadi. Sahnada ikkita deraza, eshik va nogironlar aravachasida o‘tirgan qahramon mavjud. Qahramonlar tashqi dunyodan butunlay uzilgan, ular yashayotgan joy esa, “halokatdan keying insoniyat” manzarasini eslatadi. Yorug‘lik xira, ranglar sovuq, havoda og‘irlik seziladi. Ushbu stsenografik yechim insoniyatning yakuniy inqirozi, umidning so‘nishini ifodalovchi ramziy makonga aylanadi. Bekket bu orqali tomoshabinni insoniyatning o‘z hayotini o‘zi vayron qilayotganini anglashga majbur etadi.

Bekket asarlarining stsenografiyasi klassik teatr an’analarini butunlay buzadi. U voqealar zanjirini, harakat dinamikasini, an’anaviy sahna o‘zgarishlarini inkor etadi. Uning sahnasida makon va vaqt tushunchalari noaniq, shartli holatga ega. Har bir asar “hech qayerda” va “hech qachon” da kechadi. Bu yondashuv inson mavjudligining umumiy, global holatini, ko‘rsatadi. Bekket uchun insoniyat qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, bir xil ma’nosizlikda yashaydi.

O‘zbekiston teatr san’atida xorijiy dramaturgiya asarlari keng sahnalashtirilib, milliy estetik qarashlar bilan uyg‘unlashtirilgan. Masalan, Shekspirning “Otello” asarining o‘zbek sahnasidagi talqinida ranglar gammasi milliy did bilan uyg‘unlashtirilib, O‘rta Osiyo me’moriy unsurlaridan foydalanilgan. Ibsen asarlanining talqinlarida esa milliy turmush detallarini o‘zida mujassam etgan zamonaviy interyer elementlari qo‘llaniladi. Bu orqali xorijiy dramaturgiyadagi universallik o‘zbek stsenografiyasida milliylik bilan boyitiladi. Natijada, asar milliy mentalitet

bilan uyg‘unlashgan yangi badiiy talqinga ega bo‘ladi. Bu uyg‘unlik tomoshabinga nafaqat xorijiy g‘oyani, balki milliy madaniyatning falsafiy ohangini ham yetkazadi.

Xorijiy dramaturgiya asosidagi stsenografiya teatr san’atida madaniyatlararo muloqotning badiiy ko‘prigidir. U orqali insoniyatning umumiy ruhiy tajribasi ifodalanadi, teatrda falsafiy tafakkur kuchayadi, milliy va jahon san’atining uyg‘unligi ta’minlanadi. Bunday stsenografiya ramziy fikrlash, minimalizm, texnologiya va milliy stilizatsiya asosida rivojlanib, zamonaviy teatr estetikasining muhim qismiga aylangan.

XX asr dramaturgiyasining eng muhim hodisalaridan biri – bu, absurd teatri deb ataluvchi yo‘nalishdir. Ushbu teatr oqimi 1940-1950-yillarda Yevropada, ayniqsa, urushdan keying davrda shakllanib, inson hayotining ma’nosizligi, ijtimoiy izolyatsiya va ruhiy bo‘shliqni ifodalashga qaratilgan edi. Absurd teatrda voqealar mantiqsiz, qahramonlar o‘z harakatlarining sababini anglamaydi, til esa aloqa vositasidan chiqib, ma’nosizlik ramziga aylanadi.

Xo‘sh, absurd janri qanday kelib chiqdi o‘zi?

XX asr adabiyoti insoniyat tafakkurida tub o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Urushlar, ijtimoiy inqirozlar, texnika taraqqiyoti bilan birga insonning o‘z hayotiga bo‘lgan ishonchi, qadriyatlarga tayanishi, insoniyatning urushdan keying ruhiy holati, hayotining manosi yo‘qolishi, axloqiy qadriyatlarning inqirozi san’atda yangi badiiy shaklni – absurd janrini yuzaga keltirdi. Absurd teatr an’anaviy dramaturgiyaning asosiy tamoyillarini – mantiq, voqeaviylik, sabab-oqibat aloqalari, qahramonlar xarakterlarini rad etadi. Ya’ni bu janr ekzistensializm falsafasi, ya’ni, insonning ekzistensial holati bilan bog‘liq. Bunda “Nima uchun yashayapman” degan abadiy savolni sahnaviy shaklda ko‘rsatishga harakat qilinadi. Bunda sahna hayotning mantiqsiz, takroriy va ma’nosiz kechayotganligining badiiy timsoliga aylanadi, insoniyatning mavjudlik ma’nosini izlashdagi ichki iztirobini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Albert Kamyuning “Absurd falsafasi” (1942) asarida bu yo‘nalishning nazariy asosini ochib berdi. Kamyu ta’kidlashicha, inson hayoti tartibsiz va ma’nosiz, lekin inson shu ma’nosizlikni anglab yashash orqali mavjudligini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda ham absurd teatr g‘oyalari zamonaviy rejissorlar – Robert Uilson, Kastelluchi, Pina Bausch kabi san’atkorlar ijodida o‘z ifodasini topmoqda.

Absurd teatrining paydo bo‘lishi bu janrda dramaturgik asarlar yozuvchilarning ham turli tuman mashhur asarlar, romanlar yozishiga zamin yaratdi. Absurd adabiyoti XX asr boshlaridan beri bugungi kunga qadar o‘z mashhurligini yo‘qotmagan. Bu yo‘nalishning asoschilaridan biri – Frans Kafka bo‘lib uning sermahsul ijodi keyingi absurd dramaturgiyasi (Samuel Bekket, Ejen Ionesko, Harold Pinter) va ekzistensial falsafa (Albert Kamyu, Sartr) uchun poydevor bo‘ldi.

Frans Kafka ijodida absurdlik – bu shunchaki g‘ayritabiiy yoki mantiqsiz hodisalar majmui emas, balki, insonning ma’noni izlab, uni topa olmasligi holatidir. U o‘z asarlarida g‘ayritabiiy voqealar, mantiqsiz hodisalar, ma’nosiz jazolar va noaniq hukmlar inson hayotining metaforik timsoliga aylanadi. Unda hayotni aniq maqsadsiz, biroq, ichki ruhiy bosimga to‘la ma’no izlovchi jarayon sifatida ko‘rsatadi. Kafka olami – bu, tartib va adolatdan mahrum, biroq, qat’iy qoidalar asosida ishlaydigan, insonni ezuvchi sovuq tuzumlar olamidir. Kafka asarlarida qahramonlar nima uchun qiynalayotganini, kim ularga hukm chiqarganini bilmaydi. Ular doimo nimanidir izlaydilar, lekin hech qachon maqsadlariga yeta olmaydilar.

Yozuvchining “Jarayon” asarida bu holat ayniqsa, yorqin ko‘rinadi. Asar bosh qahramoni Yozef. K. bir kuni sababsiz hibsga olinadi, lekin unga hech kim aybini tushintirib bera olmaydi. Sud tizimi mavjud, lekin uni hech kim tushintirmaydi. Qahramon o‘zini oqlashga urinadi, biroq, bu urinishlar faqat yangi chalkashliklarga olib keladi. Kafka bu asar orqali inson va tizim o‘rtasidagi mantiqsiz to‘qnashuvni, adolatning yo‘qligini, byurokratik tuzilmalarning odam

ustidan hukmronligini ko‘rsatadi. “Jarayon” da absurd insonning ichki holatiga aylanadi: u o‘z hayotining ma’nosizligidan qocholmaydi, o‘zini oqlay olmaydi, lekin kurashishdan ham to‘xtamaydi.

Kafka “Evrilish” asarida esa absurdlikni boshqacha burchakdan tasvirlaydi. Asar qahramoni Gregor Zamza bir tong uyg‘onib, o‘zini hasharotga aylangan holatda topadi. Bu g‘ayritabiiy o‘zgarish voqealar markaziga aylanadi, biroq yozuvchi uni tushuntirishga urinmaydi. Aksincha, bu holat oddiy, kundalik voqelik sifatida tasvirlanadi. Gregorning oilasi dastlab hayratlanadi, keyin esa undan uyalib, uni yashirishga urinadi, u inson sifatida emas, befoyda mavjudot sifatida ko‘riladi. Bu holat insonning jamiyatdagi o‘rnining yo‘qolishi, mehnat quliga aylanishi, insoniy qadriyatlari yo‘qolishining kuchli ramzidir. Kafka bu asarda insonning o‘z mehnatidan, oilasidan va jamiyatdan begonalashuvini ifoda etadi.

Kafka olami bu – insonning ichki qo‘rquvlari, shubhalari va umidsizliklari mujassam bo‘lgan badiiy makondir. Unda absurd nafaqat hayotning mantiqsizligida, balki insonning o‘zi yaratgan tizimlar, qoidalar va qo‘rquvlarda yashiringan. Kafka asarlari orqali absurd adabiyoti chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘ldi. Ya’ni u insonning ma’nosizlikka qaramay, yashashga bo‘lgan istagini, hayotning cheksiz iztiroblar orasidagi ma’nosini topish istagini ifoda etdi.

Shu sababli Frans Kafka ijodi nafaqat absurd adabiyotining, balki, butun zamonaviy san’atning ruhiy va falsafiy asosini belgilab berdi. Uning asarlari insoniyatni o‘z ichki dunyosiga boqishga, hayot ma’nosizligidan ham badiiy va ruhiy mazmun topishga undaydi. Kafka olami bu sukutdagi faryod, tartibsizlikdagi izlanish va mantiqsizlikdagi chuqur ma’nodir.

Xulosa

Xorijiy dramaturglar asarlari asosida yaratilgan stsenografiya asarlari zamonaviy teatr san’atida muhim badiiy va estetik ahamiyatga ega bo‘lib, sahna asarining mazmuniy va g‘oyaviy talqinini to‘laqonli ochib berishda yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida xorijiy dramaturgiya namunalari asosida sahnalashtirilgan asarlarda stsenografiya nafaqat bezak vazifasini bajarishi, balki dramatik voqealar rivoji, obrazlar ruhiy holati va muallif g‘oyasining ifodalanishida faol ishtirok etishi aniqlandi.

Stsenografik yechimlarda sahna makonining kompozitsion tashkil etilishi, dekorativ shakllar, ranglar uyg‘unligi, yorug‘lik texnologiyalaridan foydalanish hamda ramziy detallar orqali dramaturgik konflikt kuchaytiriladi va tomosha ta’sirchanligi oshiriladi. Xorijiy dramaturglar asarlariga xos falsafiy, psixologik va ijtimoiy g‘oyalar stsenografiya vositasida vizual obrazlar orqali ochib berilib, tomoshabinning estetik tafakkuri va badiiy didini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, xorijiy dramaturgiya asosida yaratilgan stsenografiya asarlarida turli madaniyatlar, tarixiy davrlar va badiiy maktablarning o‘zaro uyg‘unligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu jarayon milliy teatr san’atida yangi ijodiy izlanishlar, zamonaviy sahna bezagi yechimlari hamda innovatsion yondashuvlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bunday stsenografik tajribalar orqali teatr san’atida an’anaviy va zamonaviy badiiy qarashlar sintezi yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy dramaturglar asarlari asosida yaratilgan stsenografiya asarlari teatr tomoshasining badiiy yaxlitligini ta’minlash, sahna asarining estetik va ma’naviy qiymatini oshirish hamda tomoshabin bilan ijodiy muloqotni kuchaytirishda muhim o‘rin egallaydi. Mazkur tadqiqot natijalari teatrshunoslik va stsenografiya sohasida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, kelgusida sahna san’atini rivojlantirish va malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida samarali foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bekket S. Godotni kutib. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2010. — 126 b.
2. Ionesko E. Soch oluvchi ayolning kursisi. — Moskva: Iskusstvo, 1982. — 144 s.
3. Pinter H. The Birthday Party. — London: Methuen Drama, 1991. — 120 p.
4. Genet J. The Maids. — London: Grove Press, 1964. — 98 p.
5. Adamov A. Pingviny. — Moskva: Sovetskiy pisatel, 1975. — 132 s.
6. Esslin M. The Theatre of the Absurd. — New York: Anchor Books, 2001. — 398 p.
7. Innes C. Modern British Drama: 1890–1990. — Cambridge: Cambridge University Press, 1992. — 347 p.
8. Bentley E. The Playwright as Thinker. — New York: Harcourt, 1967. — 276 p.
9. Williams R. Drama from Ibsen to Brecht. — London: Chatto & Windus, 1968. — 312 p.
10. Кримова Н. Сценография XX века. — Москва: Искусство, 1981. — 260 с.
11. Демидова А. Театр абсурда и сценическое пространство. — Санкт-Петербург: Балтийские сезоны, 2009. — 174 с.
12. Каганов Ю. Художественное решение сценического пространства. — Москва: ВГИК, 2002. — 190 с.
13. Ergashev O. Teatr san’ati va uning badiiy turlari. — Toshkent: San’at, 2014. — 210 b.
14. Qosimova N. Stsenografiya nazariyasi asoslari. — Toshkent: Kamalak, 2019. — 165 b.
15. Rasulov A. Teatrda tasviriy yechimlar va ularning estetik asoslari. — Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2021. — 198 b.
16. Rahmonova D. G‘arb dramaturgiyasida absurd janrining o‘ziga xosligi // San’atshunoslik ilmiy jurnali. — 2022. — №4. — B. 45–53.
17. The British Library: Modernism and the Theatre of the Absurd [Elektron manba]. — URL: https://www.bl.uk/20th-century-literature (murojaat sanasi: 14.01.2026).